

AYOLLAR PARDOZI TERMINOLOGIYASIGA DOIR

Haqberdiyeva Sagina Shomurot qizi

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti

mustaqil tadqiqotchisi

Safarova Nasiba

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 2-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA

Bugungi kunda o'zbek terminologiyasi sohasi ancha taraqqiy eta boshladи, chunki ilm-fanda yangi kashfiyotlar bo'lishi natijasida yangi terminlar, atamalar va nomlar paydo bo'lmoqda. Shular natijasida jamiyatning turli soxalariga kirib kelgan yangi termin, atama, leksemalarni o'rganishni taqoza etadi. Shu nuqtayi nazardan, ayollar pardozi sohasida ham anchagina yangi terminlar paydo bo'lmoqda, Shu sababli, ushbu maqolada pardozning zamonaviy jamiyatdagi ahamiyati va uning turli jihatlari haqida batafsil tahlil berilgan. Pardoz tushunchasiga ta'rif berilib, uning tarixi va qadimiy jamiyatlardagi rivojlanishi tahlil qilingan. Shuningdek, kosmetik vositalar va ularni qo'llash usullari, jumladan, teri parvarishi, makiyaj, piling, tatuaj va boshqa go'zallik terminlari batafsil yoritilgan.

Kalit so'zlar: pardoz, teri parvarishi, makiyaj, piling, tatuaj, go'zallik, tahlil, terminologiya, ta'rif.

ANNOTATION

Today, the field of Uzbek terminology has begun to develop significantly, because as a result of new discoveries in science, new terms, terms and names are emerging. As a result, new terms, terms, and lexemes that have entered various sectors of society require the study of them. From this point of view, many new terms are also emerging in the field of women's makeup. Therefore, this article provides a detailed analysis of the importance of makeup in modern society and its various aspects. The concept of makeup is defined, its history and development in ancient societies are analyzed. Also, cosmetic products and methods of their application, including skin care, makeup, peeling, tattoo and other beauty terms, are covered in detail.

Keywords: makeup, skin care, makeup, peeling, tattoo, beauty, analysis, terminology, definition.

Tilshunoslik fan bo'lib shakllangan eng qadimgi davrlardan boshlab Sharqda ham, G'arbda ham so'z turkumlari va ularning o'rtasidagi munosabatlar tilshunoslarning diqqat markazida bo'lib kelgani ma'lum. Bu hol so'z/leksemaning til tizimidagi markaziy birlik hamda uning obyektiv borliqdagi narsalarni anglashga

xizmat qiluvchi tushunchani ifodalovchi til materiali ekanligi bilan bog'liq ekanini olimlar qayd etadilar¹. Terminologiyaning til lug'at tarkibidagi roli haqida ikki dunyoqarash mavjud. Birinchi g'oyasiga ko'ra, terminologiya adabiy til leksikasining mustaqil qatlami tarzida e'tirof etilsa , ikkinchi ta'limotga muvofiq u adabiy til so'z boyligi tarkibidan ajratiladi, "alohida turuvchi" obyekt tarzida baholanadi va nutqning turlari (sheva , jargon , jonli so'zlashuv) ga tenglashtiriladi. O'zbek tilshunosligida leksik qatlamlarni qiyosiy o'rganish masalalari bo'yicha ham ancha ishlar qilinganini kuzatishimiz mumkin . Bu borada I.Ismoilovning 1966-yilda nashr etirgan monografiyasi muhim ishlardan biri sanaladi . Muhimi shundaki , mazkur ishda o'zbek va uyg'ur tillaridagi qon -qorindoshlik terminlarining paydo bo'lishi va amalda qo'llanish me'yorlari atroflicha tahlil etilgan . D.X.Bazarova va K.Sharipovalar tomonidan "O'rta Osiyo va Qozog'iston turkiy tillari leksikasining taraqqiyoti " deb nomlangan yirik tadqiqot maydonga kelganligini ham ta'kidlash o'rinni . Unda Markaziy Osiyo hududidagi turkiy tillarda qo'llanilgan zoologik terminlar tadqiqot obyekti qilib olingan. H. Dadaboyevning " XI-XII asrlar turkiy tillar yozma yodgorliklarigi ijtimoiy - siyosiy va sotsial iqtisodiy terminologiya" mavzusida yaratilgan tadqiqotida o'zbek tilidagi , jumladan , turkiy tillardagi ijtimoiy- siyosiy va sotsial -iqtisodiy terminologiyaning paydo bo'lishi va tilda qo'llanish muammolari atroflicha o'rganilgan.

Shunday ishlardan biri ayollar pardozi terminologiyasi hisoblanadi. Pardoz deb odamning tashqi ko'rinishini yaxshilash, yuz xususiyatlarini ajratib ko'rsatish maqsadida kosmetika vositalaridan foydalanishga aytildi. Buning uchun bo'yanmoq, rangini o'zgartirish, chiroqli ko'rinishga erishish uchun turli xil vositalardan foydalaniladi. Mavzu hozirgi jamiyatdagi dolbzarligi jihatidan muhim qirralardan biridir. Go'zallik sanoati bugungi kunda juda rivojlangan. Ayollar o'zlarini yanada chiroyliroq ko'rsatish uchun turli xil kosmetika vositalaridan foydalanishadi. Bu esa pardoz- andoz jarayonlarining dolbzarligini oshiradi. Pardoz tarixiga qisqacha to'xtaladigan bo'lsak, pardoz tarixi juda qadimga borib taqaladi. Qadimgi Misr, Rim, Gretsya davrlarida ham ayollar o'zlarini bo'yanib, chiroqli ko'rinishga erishgan. Vaqt o'tishi bilan pardoz san'ati rivojlanib, turli xil usullar paydo bo'lган. Quyida shu hjaqida fikr-mulohazalar bildirishga harakat qilamiz.

Teri parvarishi - ayollar eng ko'p e'tiborlarini yuz terilariga qaratishadi.Bu borada ularterilarining namligini taminlash uchun turli xildagi tabiiy va kimyoviy vositalardan foydalanishadi. Aloe, vera yoki glyutamin kislotasidagi kremlar, suli va shea yog'lari teriga tez so`riladi. Teri qoplamasidagi himoya oplamini hosil qiladi, quruqlikni kamaytiradi. Bundan tashqari lasyonlar va serumlar: gialuran kislotasi va S vitamin qo'shilgan kremlar terini namligini ta'minlovchi samarali vositalardir.

¹ Normo'minov, Sh. (2023). O'zbek Tilida Tasviriy So'zlarning So'z Turkumlari Shakllanishidagi O'rni. Uluslararası Türk Lehçe Araştırmaları Dergisi / International Journal of Turkic Dialects (TÜRKLED). 7. Cilt, 2. Sayı, 411-415

Kosmetik vositalardan voz kechishni isbotlovchilar uchun esa tabiiylik, tabiiy vositalar ham mavjud: asal va yogurt aralashtirilib yuz terisiga surish quruq terini namlantirishda tabiiy vositalardan biridir. Yuz terisini parvarishlash va unga oro berish, ya’ni kosmetik vositalardan foydalanish usullari kun sayin oshib bormoqda. Bu albatta o’zbek terminologiya sohasining boyishiga xizmat qilmoqda. Shunday terminlarning ba’zilariga to’xtalib o’tamiz:

Makiyaj - bu yuzning turli qismlarini bezash va chiroqli ko`rinish yaratish uchun kosmetik mahsulotlarini qo`llash san`ati. U insonni yangi obrazini yaratish yoki xatoliklarni niqoblash uchun ishlataladi.

Demakiyaj- makiyajni tozalash jarayoni. Bunda yuzdagi bo’yoqlarni to’g’ri va to’liq tozalash amalga oshiriladi. Demakiyaj teri salomatligi uchun muhim bo’lib, teri yoki lablarda qoladigan kosmetik qoldiqlarning zararini oldini oladi.

Piling- terining ustki qatlqidagi zararlangan nobud bo’lgan o’lik terilardan xalos bo’lish shu bilan birga yuzdagi husnbuzar, mayda ajinlar, tug’ruqdan keyingi dog’lar ayollarni eng ko’p tashvishlantiruvchi muammo – qora nuqtalarni yo’q qiluvchi vosita. Mazkur muolaja terini silliqlaydi namlaydi va yoshartiradi. Shuningdek, terida termateklar yuqumli kasalliklar, ochiq jarohatlar bor bo’lgan holatlarda, homiladorlik, emiziklik davrida ayol-qizlarimiz uchun bu muolaja noo’rin sanaladi.

Ayollarining husniga husn qo’shuvchi – bu ularning qoshlari hisoblanadi. Shu sababli ayyollarimiz doimo qoshga alohida e’tibor qaratishadi.

Qosh chizish – qalam qosh konturlari bilan siyrak qoshlarga shakl berish.

Qosh ukladkasi – qosh laminatsiyasi. Pastga qaraganda qoshlarni yuqoriga ko’tarilib, unga aynan kerakli shaklni berish imkoniyatini yaratadi.

Tatuaj – bu terining sirtqi qismiga maxsus igna yordamida doimiy yoki ma’lum muddatli bo’yoq berish, rasm chizish.

Tatuajni asosan ayollar o’zlariga oro berish maqsadida chiroqli va estetik jihatdan san’at asari sifatida qarashadi. Agar tatuaj yaxshi sterik sharoitda qilinmasa, infeksiya, alergik reaksiyalar yoki bosqa yuqumli teri kasalliklariga sabab bo’lishi mumkin. Bugungi kunda tatuajning turlari ko’p. Ayollarimiz orasida qosh, ko’z va lab tatuajlari ursiga kirganligini ko’ramiz.

Qosh tatuaji – bunda qoshlarning shaklini doimiy yoki yarim doimiy usulda o’zgartirish va to’ldirish jarayoni. Bunda qosh tukchalari orasiga tabiiy qoshlar kabi tuklar chizish bilan qoshning siyrsasi qismi to’ldiriladi. Bu jarayon yarim doimiy bo’lib, 1-2 yil davomida saqlanadi.

Ko’z tatuaji – ko’z qovoqlariga, ko’z atrofiga yoki bugungi kunda xavfli turlaridan ko’zning oq qismiga tatirovka qilish.

Lab tatuaji – lab sohalarini to’g’irlash kattalashtirish, hamda, qizartirish maqsadida qilinadigan muolaja. Tatuajning bu kabi turlari estetik maqsadlarda

qo'llanilsada, ba'zi bir zararlarini keltirib chiqarishi mumkin: alergik reaksiyalar, infeksiya xavfi, yallig'lanish va shish, bo'yoqning noo'rin yoyilishi.

Kiprik laminatsiyasi – betartib va egilmaydigan kipriklarni tartib bilan joylashtirish va yuqoriga qayirish.

Blefaroplastika - osilgan qovoqlarni operatsiya yo'li bilan yo'qotish. Buni tabiiy yo'l bilan ham amalga oshirish mumkin.

Yuz fitnesi – qovoqlarni ko'tarilishi, yuz rangining tiniqlashishi, mayda ajinlarning yo'qolishi.

Lab botekisi – lab sohasidagi chiziqlar va kreslarni kamaytirish, og'iz burchagini ko'tarish, lab sohalarini shishirish.

Manikyur – qo'l tirnoqlarini qirqib tekislash va bo'yab bezatish.

Pedikyur – oyoq tirnoqlarini parvarishlash va bo'yash.

Shlak – tirnoqning ustki qatlamiga qotiriladigan suyuqlik bo'lib, tirnoqlarga o'zgacha joziba berish vazifasini bajaradi.

Pardoz o'zini ifodalash, o'ziga g'amxo'rlik qilish vositasi sanaladi. Pardoz ayollarga o'zlarini yanada chiroyliroq his qilishga o'zlariga bo'lgan ishonchni oshirishga yordam beradi. Biroq, pardoz qilishda me'yorini saqlash, sifatli kosmetika vositalaridan foydalanish va teriga to'g'ri parvarish qilish muhim ahamiyatga ega. Pardoz qilish muvozanat va me'yorini saqlash muhim. Har kuni og'ir pardoz qilish teriga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shuningdek, tabiiy go'zallikni ham unutmaslik kerak. Umuman olganda, pardozchilik terminologiyasi yildan yilga boyib boraveradi. Bu jihatlariga keying tadqiqotlarimizda, albatta, e'tibor qaratamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- Сафарова Р. Лексик-семантик муносабатнинг турлари. Тошкент «Уқитувчи» 1996, 15-6
- Normo'minov Sh. (2023). O'zbek Tilida Tasviriy So'zlarning So'z Turkumları Shakllanishidagi O'mni. *Uluslararası Türk Lehçe Araştırmaları Dergisi / International Journal of Turkic Dialects (TÜRKLAD)*. 7. Cilt, 2. Sayı, 411-415.
- Dadaboyev H. O'zbek terminologiyasi. Toshkent, 2019,